

**VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakillantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 11 432 tani tashkil etmoqda, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 39 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 11 393 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 889,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 049,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 82,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 839,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 405,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>13 889,3</b>	<b>107,8</b>	<b>2 049,8</b>	<b>82,6</b>	<b>11 839,5</b>	<b>113,9</b>
Samarqand sh.	4 859,9	107,9	1 426,7	78,5	3 433,1	127,8
Kattaqo‘rg‘on sh.	565,4	107,0	0,5	61,6	564,9	107,0
Oqdaryo	336,6	108,7	3,1	46,3	333,5	110,0
Bulung‘ur	891,6	109,1	17,7	102,4	873,9	109,3
Jomboy	494,9	107,8	3,7	7,3	491,1	120,4
Ishtixon	536,7	108,5	3,6	99,5	533,0	108,6
Kattaqo‘rg‘on	526,6	104,2	31,5	111,3	495,0	103,8
Qo‘shrabot	273,0	106,9	2,7	92,3	270,5	107,1
Narpay	699,5	107,5	3,7	93,2	695,8	107,6
Payariq	426,0	108,1	4,1	103,5	421,9	108,2
Pastdarg‘om	465,1	104,8	19,1	89,0	446,0	105,6
Paxtachi	252,9	107,7	2,8	74,6	250,2	108,2
Samarqand	1 581,5	108,2	490,6	101,2	1 090,9	111,7
Nurobod	216,5	107,8	2,7	98,3	213,8	107,9
Urgut	1 362,1	108,9	27,6	128,5	1 334,5	108,5
Toyloq	401,0	108,6	9,7	104,9	391,4	108,7

2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Bulung‘ur (109,1 %), Urgut (108,9 %), Oqdaryo (108,7 %), Toyloq (108,6 %), Ishtixon (108,5 %), Samarqand (108,2 %) tumanlarida va Samarqand shahrida (107,9%) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


### CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovaraylanmasi hajmi, statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 11 839,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 13,9 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,2 % ni tashkil etdi.

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar, foizda



#### Yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 82,6 % ni va 2 049,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,8 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

**AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

**Hududlar kesimida ma‘lumot**

	<b>Hajmi mlrd. so‘m</b>	<b>O‘shish sur‘atlari, foizda</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 284,5</b>	<b>105,5</b>
Samarqand sh.	8 266,5	105,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	5 945,3	105,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1 933,4	106,2
Bulung‘ur	4 387,8	106,6
Jomboy	2 596,3	105,1
Ishtixon	1 935,4	106,2
Kattaqo‘rg‘on	1 784,3	102,1
Qo‘shrabot	1 915,9	104,8
Narpay	3 064,0	105,5
Payariq	1 550,2	105,6
Pastdarg‘om	1 207,8	102,5
Paxtachi	1 655,3	106,1
Samarqand	5 765,6	105,9
Nurobod	1 326,6	105,7
Urgut	2 422,8	106,3
Toyloq	1 804,0	106,0

Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyun holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 284,5 ming so‘mni (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,5 % ni) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (8 266,5 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (5 945,3 ming so‘m) va Samarqand (5 765,6 ming so‘m), Bulung‘ur (4 387,8 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha  
chakana tovar aylanmasi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jami</b>	<b>13 889,3</b>	<b>107,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	13 889,3	107,8	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	-	-	-

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyunida 6 265,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning jami chakana savdo hajmi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 7 623,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 13,8 foizga o‘tdi.

**2023-yilning yanvar-iyunida chakana savdo aylanmasi tarkibi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>13 889,3</b>	<b>107,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	6 265,4	101,4	45,1
Norasmiy sektor	7 623,9	113,8	54,9
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1 405,6	108,0	10,1

### Uyushmagan savdo tovar aylanmasi



2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 568,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (227,9 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 837,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi 669,7 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 124,4 mlrd. so'mni, otlar 38,6 mlrd. so'mni, parrandalar 4,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining asosiy tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA  
(PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI**


	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 405,6</b>	<b>108,0</b>	<b>568,4</b>	<b>99,9</b>	<b>837,2</b>	<b>114,3</b>
Samarqand sh.	124,8	123,4	97,0	121,7	27,8	129,8
Kattaqo'rg'on sh.	163,5	94,9	67,4	80,4	96,1	108,7
tumanlar:						
Oqdaryo	81,4	103,8	5,5	54,9	75,9	110,9
Bulung'ur	124,3	101,4	46,6	134,3	77,8	88,5
Jomboy	99,8	106,7	54,4	80,0	45,4	178,1
Ishtixon	105,5	105,1	59,2	127,4	46,3	85,9
Kattaqo'rg'on	109,2	123,6	57,9	172,7	51,3	93,5
Qo'shrabot	51,6	107,1	8,2	41,5	43,4	153,3
Narpay	59,3	97,6	34,1	133,5	25,1	71,6
Payariq	104,1	106,8	28,8	71,9	75,3	131,2
Pastdarg'om	49,5	103,0	4,1	102,8	45,4	103,0
Paxtachi	61,9	112,5	24,1	102,8	37,8	119,7
Samarqand	49,4	122,9	7,9	114,8	41,5	124,5
Nurobod	64,3	112,7	9,1	52,4	55,2	139,1
Urgut	82,2	106,9	42,7	89,0	39,5	136,6
Toyloq	74,8	122,2	21,4	78,1	53,4	157,6

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 905,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 122,7 % ni tashkil qildi.



### Savdo aylanmasi ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 5 498,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 102,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 55,5 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
VA KICHIK KORXONALAR**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Nurobod (231,6 m.), Samarqand (2,0 m.), Toyloq (182,7 %) va Samarqand sh. (163,0 %) tumanlarida kuzatildi.

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 3 012 tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 30 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 982 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>9 905,7</b>	<b>122,7</b>	<b>4 407,7</b>	<b>163,9</b>	<b>5 498,0</b>	<b>102,1</b>
Samarqand sh.	6 699,4	128,9	3 589,1	163,0	3 110,3	103,9
Kattaqo'rg'on sh.	168,3	98,4	0,2	84,9	168,1	98,4
tumanlar:						
Oqdaryo	253,0	107,7	-	-	253,0	107,7
Bulung'ur	235,6	130,6	198,2	139,6	37,4	97,3
Jomboy	132,4	96,6	0,026	0,2	132,3	109,9
Ishtixon	65,8	101,2	-	-	65,8	101,2
Kattaqo'rg'on	191,1	100,5	-	-	191,1	100,5
Qo'shrabot	20,0	100,9	0,03	30,7	20,0	101,2
Narpay	78,7	91,1	0,187	57,0	78,5	91,2
Payariq	55,6	102,2	-	-	55,6	102,2
Pastdarg'om	401,5	114,3	136,8	151,3	264,7	101,5
Paxtachi	8,5	89,0	0,034	16,0	8,5	90,7
Samarqand	909,5	129,2	306,0	2,0 m.	603,5	109,2
Nurobod	58,9	134,1	18,8	231,6 m.	40,1	91,5
Urgut	268,1	93,8	-	-	268,1	93,8
Toyloq	359,3	104,4	158,3	182,7	201,0	78,0